

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 6-7 YOSHLI  
BOLALARING KOMPETENSIYAVIY JISMONIY RIVOJLANISHI VA  
SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Ziyoyev Olim**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
"Boshlang'ich ta'lism metodikasi" kafedrasiga  
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning kompetensiyaviy jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzini takomillashtirish texnologiyasi, maktabgacha ta'lismning sifat va samaradorligiga erishishda 6-7 yoshli bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, maktabgacha ta'lismning sifat va samaradorligiga erishishga kompetensiyaviy yondashuv haqida ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, maktabgacha ta'lism, rivojlanish sohasi, ijtimoiy rivojlanish.

**КОМПЕТЕНТНОЕ ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ В  
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И ТЕХНОЛОГИЯ  
ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ**

Зиёев Олим

Денауский предпринимательско-педагогический институт, кафедра  
«Методика начального образования», учитель физкультуры

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены компетентностное физическое развитие детей 6-7 лет в дошкольных образовательных организациях, технология совершенствования здорового образа жизни, содержательная и интересная организация повседневной деятельности детей 6-7 лет с целью для достижения качества и эффективности дошкольного образования обсуждалось качество дошкольного образования и компетентностный подход к достижению эффективности.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, дошкольное образование, развивающая сфера, социальное развитие.

**COMPETENT PHYSICAL DEVELOPMENT OF 6-7-YEAR-OLD CHILDREN IN  
PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND TECHNOLOGY OF  
FORMING A HEALTHY LIFESTYLE**

Ziyoyev Olim

Denov Entrepreneurship and Pedagogical Institute, Department of "Primary Education Methodology", physical education teacher

**Annotation:** In this article, the competence physical development of 6-7-year-old children in preschool education organizations, the technology of improving a healthy lifestyle, the meaningful and interesting organization of the daily activities of

6-7-year-old children in order to achieve the quality and efficiency of preschool education, the quality of preschool education and a competency-based approach to achieving effectiveness was discussed.

**Key words:** competence approach, preschool education, developmental sphere, social development.

### **Kirish (Introduction)**

Bugungi vaqtida maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishga kompetensiyaviy yondashuv, guruhlarni har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitibborish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil qilish, ularning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, o'tkaziladigan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan ko'rinishga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil etishni ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. Rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini takomillashtirish safda bir, ikki, to'rt kishi bo'lib yurish ijtimoiy-hissiy rivojlanish, o'z hissiyotlarini nazorat etishni o'rganish, nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari bolaning og'zaki nutqini yoshiga muvofiq mustahkamlash ijodiy takomillanish hamkorlikdagi faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirish, ritmhissini, musiqani his qilish fazilatini harakatlarda ritmik ifodalilikni tarbiyalashdan iboratdir.

### **Material va tadqiqot usullari (Materials and methods)**

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim mohiyatini rivojlantirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqozosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni unumli amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar, shuningdek bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo'lishi kerakligini talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyl o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'lim turi hisoblanib, bolaning ilk rivojlanish yoshidan to 7 yoshgacha bo'lgan davrigacha uning har taraflama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtida bizning mamlakatimizda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning kengroq qamrab olish maqsadida xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari va uy bog'chalar faoliyatiga katta e'tibor berilmoqda. Biroq Xitoy davlatidan farqli tomoni, bizda qabul qilingan davlat standartlari hamma maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, jumladan, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bir xilda amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga tizimli yondashuv yordamida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish hissi, psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish malakalarini takomillashtirishga ko'maklashishimiz kerak. Bolalar jamoasini rivojlantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqidir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi to'g'risidagi bahoni eshitadilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar ta’lim bilan birgalikda tarbiya ham olishadi. Maktabgacha ta’lim bolaning tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’limning keyingi bosqichlarida shuningdek, butun hayoti mobaynida rivojlanib boradi. Kompetensiya-bolanning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuadir. Kompetentlik bo‘la o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi rivojlanishining har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarini hal qilishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim-bolalarning ijtimoiy-hissiy, individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsini jismoniy, ruhiy rivojlanishini ta’minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi har tomonlama maqsadli yo‘naltirilgan yaxlit jarayonlarni qamrab olgan. Ta’lim sohasini isloh qilish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan e’tibor berilayotgan eng asosiy yo‘nalishlardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi vaqlarda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinmoqda.

6-7 yoshdagi bolalar kattalarning samimiyy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o‘zaro tushunishlarini xohlaydi. Bu yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o‘zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda ya’ni o‘yin, mahsuldor faoliyatda tengdosh-sherigi sifatida ishtirok etishadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalar rivojlanishining turli tomonlarini har taraflama o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, maktabning birinchi sinflari bilan taqqoslaganda bolalar bog‘chasining maktabga tayyorgarlik guruhlarida o‘qiyotganda ular o‘zlarini xotirjam, psixologik jihatdan erkin va o‘ziga bo‘lgan ishonchni his qilishadi.

### **Natijalar va ularning muhokamasi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur joriy tizimda innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish niyatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta’minalash, internet tarmog‘iga ulash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadi 6-7 yoshli bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom hamda rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini, ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan istagini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari Davlat talablari asosida faoliyat olib boradi. Davlat talablarining muhim maqsadi mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimda ma’nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Bolaning takomillanish sohalari kompetensiyalarini rivojlanishida amalgaloshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta’lim va tarbiya

tashkilotlari, shuningdek tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan.

Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o‘zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g‘ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo‘lishi uchun harakat qilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolaning ijtimoiy-hisiy takomillanishida shaxslararo munosabatlarni yetarlicha shakillanmaganligi tufayli bu yoshdagi bolalar atrofidagi ko‘p narsalarga noadekvat munosabatda bo‘lishadi.

### **Xulosalar(Conclusions)**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim boshlang‘ich ta’limning poydevori hisoblanadi. Poydevor mustahkam bo‘lsa, imorat uzoq yillar qad ko‘tarib turadi. Shunday ekan, kelajagimiz davomchisi bo‘lgan yosh avlodga har taraflama komil inson qilib, ta’lim- tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini tushunishimiz kerak. Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub’yekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab qiladi. Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Bibliografik havolalar (References)**

1. Parmonov B.E. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. “Science and Education” Scientific Journal. 2018.
2. Qilichova M. X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. Jizzax, 2012.
3. Do’stov, S. (2023). FORMING THE STUDENT’S ECOLOGICAL THINKING IN THE LESSON DURING THE TEACHING OF" NATURAL SCIENCE" IN THE 4TH GRADE. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 34-39
4. Do’stov, S., & Xolmirzayev, N. (2023). THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS IN HUMAN LIFE AND DIFFERENT APPROACHES TO TEACHING MATHEMATICS IN SCHOOLS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 11, 87-90.
5. Do’stov, S., & Egamberdiyeva, R. (2023). Use of Modern Pedagogical Technologies in Teaching Mathematics in Schools. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, 14, 21-23.
6. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi pedagogic psixologiya” kitobi Toshkent-2018.
7. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruqlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017.
8. Z. T. Nishonova. M. Xolnazarova. “Rivojlanishpsixologiyasi”. Toshkent. 2019.